ХАЛИҚАРО МУНОСАБАТЛАР

D.Tojiyev
A.Davkarov

Turkiy davlatlar ilmiy hamkorligida Turkiy universitetlar ittifoqining o‘rni

Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi mavjud hamkorliklarni mustahkamlash maqsadida TDTga a’zo davlatlar universitetlari uchun universitetlararo ittifoq tuzish tashkilot tashkil etilgan kundan boshlab kun tartibidan o‘rin olgan va ahamiyatli o‘rnini yo‘qotmagan jarayon edi. Shu nuqtayi nazardan, 2011–2012-yillarda Kotibiyat tomonidan ushbu g‘oyani hayotga tatbiq etish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari olib borildi. 2012-yilning 10-avgustida Cho‘lpon-Ota shahrida tashkil etilgan ta’lim vazirlari darajasidagi yig‘ilishda dastlabki muhokama o‘tdi. Shu yilning 22–23-avgust kunlari esa Bishkek shahridagi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining Ikkinchi sammitida qabul qilingan qarorlarning asosi ham bu jarayonni tezlashtirdi. Va nihoyat, 2013-yilning 28–29-mart kunlari Istanbul shahrida Ittifoqqa a’zo universitetlar o‘rtasida Oliy ta’lim hududini tashkil etish bo‘yicha Direktiva [13] rasman qabul qilindi [7]. A’zo davlatlar universitetlari tomonidan asosiy ta’sischilar guruhi tashkil etildi. Davlat rahbarlarining ko‘rsatmalari asosida Universitetlar ittifoqini tashkil etish borasidagi sa’y-harakatlar sezilarli o‘rin tutdi. Davlat rahbarlari ilk sammitdan boshlab Turkiy Universitetlararo ittifoqni tashkil etish [17] tashabbusini olqishlab, bunday loyihalar ilmiy va ta’lim muassasalari, olimlar, shuningdek, universitet talabalari uchun boy tajribalar taqdim etishiga ishonch bildirishdi. Turkiy Kengashning IV sammitida davlat rahbarlari ta’lim vazirlarining ikkinchi yig‘ilishida “Turkiy universitetlar ittifoqi va uning oliy ta’lim hududini tashkil etish to‘g‘risida”gi [14] qarorini yuqori baholadilar va to‘liq texnik ta’minlashga qaratilgan uchrashuvlarni davom ettirishga chaqirdilar. Ittifoq faoliyatini yo‘lga qo‘yish,

tegishli vazirlik va davlat muassasalariga bu borada zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni topshirishdi. Jumladan, 2014-yil oktabr oyida Otaturk universiteti tomonidan o‘tkazilgan Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning Birinchi Bosh Assambleyasining tashkil etilishini qo‘llab-quvvatlashdi. Hozirda Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning boshqaruvchisi Hoja Ahmad Yassaviy Xalqaro Qozoq-Turk universiteti rektorining vakili, professor Chengiz Tomar hisoblanadi.

Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB) tashkil etilganidan boshlab, turkiy davlatlar o‘rtasida oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishga asosiy e’tiborni qaratib kelmoqda. Ushbu ittifoqqa Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatlaridagi universitetlar a’zo bo‘lib, ular o‘rtasida, asosan, talabalar va professor-o‘qituvchilar almashinuvi, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, turli qo‘shma ta’lim dasturlari va madaniy loyihalarni amalga oshirish orqali ilmiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish maqsad qilingan. Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning bugun va kelajakdagi bosh maqsadi ta’lim sifatini oshirish hamda turkiy davlatlar ta’lim tizimlari o‘rtasidagi akademik integratsiyani kuchaytirishdan iboratdir.

Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ga a’zo bo‘lish [8] oliygohlar uchun quyidagi keng imkoniyatlarni yaratadi:

1-jadval

№	DASTURLAR	IMKONIYATLAR
1	“O‘rhun” almashinuv dasturlarini amalga oshirish	“TÜRKÜNİB”ga a’zo universitetlar o‘rtasidagi almashinuv dasturlarida ishtirok etish talabalar va o‘qituvchilarga xalqaro muhitda bebaho ta’lim tajribasi va malaka oshirish imkonini beradi.
2	Almashuv dasturlarini rivojlantirish	“TÜRKÜNİB”ga a’zo boshqa universitetlar bilan talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi dasturlarida faol ishtirok etishi mumkin bo‘lib, bu xalqaro aloqalarni mustahkamlash va ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.
3	Pedagogik kadrlar tayyorlash	“TÜRKÜNİB” doirasida professor-o‘qituvchilar tarkibini tayyorlash dasturlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa o‘qituvchilarni tayyorlash darajasini oshiradi.
4	Diplomlar ekvivalentligini	“TÜRKÜNİB”ga a’zo universitetlar o‘rtasida diplomlar ekvivalentligini tan olish uchun

	tan olish	shart-sharoitlar yaratish ustida ish olib boriladi, bu esa bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida bandligini ta’minlaydi.
5	Ilmiy-tadqiqot dasturlarini birgalikda amalga oshirish	“TÜRKÜNİB”ga a’zo boshqa universitetlar bilan qo‘shma ilmiy dastur va loyihalarda ishtirok etishi mumkin bo‘ladi, bu esa ilmiy tadqiqot va ishlanmalar darajasini oshiradi.
6	Ilmiy anjuman va sport musobaqalarini tashkil etish	“TÜRKÜNİB”ga a’zo universitetlar o‘rtasida ilmiy anjumanlar va sport musobaqalari, simpoziumlar, akademik tadbirlar hamda madaniy dasturlarni tashkil etishda ishtirok etadi.
7	Grantlar yutish	Turkiy dunyoni o‘rganayotgan talabalar maxsus stipendiyalar yutishi mumkin bo‘ladi.
8	Umumiy tarix, madaniyat va adabiyotni o‘rganish	Turkiy xalqlarning umumiy tarixi, madaniyati va adabiyotini o‘rganish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi.

Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB) tashkil etilgan 2013-yilda uning a’zolari quyidagi 4 davlatning 15 ta oliygohi bo‘lib, Direktivaning “Tashkil etuvchi a’zolar” nomli 5-moddasida [1: 1–2] ular alohida belgilangan edi:

2-jadval

T/r.	**DAVLAT**	**OLIY TA’LIM MUASSASASI**
1.	**Ozarbayjon**	Ozarbayjon arxitektura va binokorlik universiteti
2.		Ozarbayjon tibbiyot universiteti
3.		Boku davlat universiteti
4.	**Qozog‘iston**	Ahmad Yassaviy Xalqaro Qozoq-Turk universiteti
5.		Al Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
6.		Lev Gumilyov nomidagi Yevrosiyo milliy universiteti
7.		Nazarboyev universiteti
8.	**Qirg‘iziston**	Husayn Karasayev nomli Bishkek gumanitar universiteti
9.		Qirg‘iziston-Turkiya Manas universiteti
10.		Qirg‘iziston xalqaro universiteti

11.		Yusuf Bolosog‘un nomli Qirg‘iziston milliy universiteti
12.	**Turkiya**	Otaturk universiteti
13.		Ege universiteti
14.		Eskishehir Usmong‘ozi universiteti
15.		Istanbul universiteti

- Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning bugunga qadar 7 ta bosh assambleyasi bo‘lib o‘tgan:
- 2014-yil 16–17-oktabrda Turkiyaning Erzirum shahrida I bosh assambleya bo‘ldi;
- 2016-yil 11–12-aprelda Erzirumda II bosh assambleya bo‘ldi;
- 2018-yil 19-aprelda Qirg‘izistonning Bishkek shahrida III bosh assambleya bo‘ldi;
- 2019-yil 23–24-aprelda Qozog‘istonning Turkiston shahrida IV bosh assambleya bo‘ldi;
- 2021-yilning 26-oktabrida Qozog‘istonning Turkiston shahrida V bosh assambleya o‘tkazildi;
- 2022-yilning 23-noyabrida Turkiston shahri VI bosh assambleyaga ham mezbonlik qildi.
- 2024-yilning 20-mayida Ittifoqning VII bosh assambleya Boku shahrida tashkil qilindi [11].
- 2025-yilning 15-oktabrida O‘zbekistonning Toshkent shahrida VIII bosh assambleya o‘tkazildi.

2021-yilning 26-oktabrida Turkiy davlatlar tashkiloti Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning V Bosh assambleyasi Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti bo‘lmish Turkiston shahrida o‘tkazildi. Tashkilotga a’zo davlatlar 32 ta oliy o‘quv yurtining rektorlari, olimlari va talabalari ishtirok etgan tadbirda Universitetlar uyushmasining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi belgilandi. “O‘rhun” mobillik dasturini amalga oshirish masalasi kengroq muhokama qilindi va bu anjumanda O‘zbekistonning 4 universiteti Ittifoqqa rasmiy a’zo bo‘lib kirishdi [6]. Bundan tashqari Qirg‘izistondan 2 ta, Ozarbayjon va Vengriyadan 1 tadan oliygoh Ittifoqning a’zolariga aylandi aylanishdi [15].

2022-yil 23-noyabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning VI Bosh Assambleyasi bu safar

ham Turkiy dunyoning ma’naviy-madaniy poytaxti sanalmish Turkiston shahrida bo‘lib o‘tdi. Hoja Ahmad Yassaviy nomidagi Qozoq-Turk xalqaro universiteti mezbon va raislik qiluvchi universitet bo‘lgan Bosh assambleyada universitet universitet rektorlari, prorektorlari, yuqori darajali mutasaddilari hamda a’zo va kuzatuvchi davlatlar, xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, O‘zbekiston, Vengriya va Ozarbayjondan 49 ta universitet vakillari ishtirok etdi. Tomonlar “O‘rxun almashinuv dasturi”ning amaldagi Nizomini takomillashtirish, qo‘shimcha barqaror moliyaviy yordam ko‘rsatish va O‘rxun almashinuv dasturini konsolidatsiyalash jarayonini boshqarish bo‘yicha Ishchi guruhini tashkil etish orqali kuchaytirishga qaror qildilar.

Rektorlar a’zolik uchun berilgan yangi arizalarni qabul qilib, kun tartibidagi boshqa masalalarga ham to‘xtalib o‘tishdi: Talabalar kengashi rolini jonlantirish, universitetlarda yangi boshqaruvchilar tayinlash, shu qatorda Ittifoqqa a’zo universitetlar o‘rtasidagi hamkorlik, kun tartibini boyitish uchun yangi dastur va loyihalar zarurligini muhokama qildilar. Shuningdek, a’zo universitetlarning elektron kutubxonalaridan o‘zaro foydalanishni ta’minlashga kelishdilar hamda ALKU oliygohi ushbu jarayonga bosh koordinator sifatida tanlandi [18]. TÜRKÜNİBning maxsus anjumani kelgusi yil Samarqand shahrida o‘tishi belgilandi.

Uchrashuvda Ittifoq a’zoligiga yangi nomzod universitetlar Bosh Assambleyaga Turkiy Universitetlar Ittifoqiga a’zo bo‘lish bo‘yicha o‘z rejalari, strategiyalari va dasturlarini taqdim etdi. Shu nuqtayi nazardan, TDT kotibiyati Ittifoqda ishtirok etayotgan barcha universitetlarning aniq qo‘shma loyiha takliflarini ishlab chiqishi muhimligini ta’kidladi.

VI yig‘ilishda rasmiylar tomonidan yangi oliygohlar a’zolikka qabul qilindi:

- Qozog‘iston – 7 ta;
- Turkiya – 7 ta;
- O‘zbekiston – 1 ta oliygoh Turkiy universitetlar ittifoqining yangi a’zolariga aylandi [12].

Turkiy davlatlar universitetlar Ittifoqining VI Bosh Assambleyasidan so‘ng, 2014-yilda Eskishehirda bo‘lib o‘tgan Birinchi Assambleyaga nisbatan a’zo universitetlar soni 18 tadan 49 taga yetdi. TÜRKÜNİBga a’zo universitetlar sonining ko‘payishi va faoliyatining faollashgani munosabati bilan TDT Kotibiyati 2014-yil iyunidan buyon oliygoh rektorlarining

maxsus yig‘ilishini tashkil qilib keladi. 2023-yil 7-iyun kuni “Turkiy sivilizatsiya poytaxti” – Samarqand shahrida ushbu yig‘ilishning navbatdagi anjumani bo‘lib o‘tdi [10].

Uchrashuv kun tartibiga muvofiq, tomonlar TÜRKÜNİB faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi, “O‘rxun” almashinuv dasturining mavjud imkoniyatlari va muammolarini muhokama qildilar hamda TÜRKÜNİBning 2023–2024 yillarga mo‘ljallangan faoliyati bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqdilar. Shuningdek, Ittifoqqa a’zo bo‘lish istagida bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarining hujjat topshirishi yuzasidan ham o‘zaro fikr almashildi.

Maxsus uchrashuvdan so‘ng ishtirokchilar O‘zbekiston tomonidan TDT Kotibiyati bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Afrosiyob (Alp Er To‘nga) turkiy davlatchilikka asos solgan tarixiy shaxs sifatida” [3] mavzusidagi ilmiy seminarda ham qatnashdilar.

“Ipak yo‘li” turizm xalqaro va madaniy meros universiteti mezbonlik qilgan hamda TDTning a’zo va kuzatuvchi davlatlaridan 50 ga yaqin oliygoh qatnashgan 2023-yilgi Samarqanddagi maxsus anjumanda Turkiy dunyo Oliy ta’lim muassasalari ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlik va do‘stlikni mustahkamlash, ta’limni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi [5: 66]. Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ning maxsus sessiyasida akademik hamkorlikni rivojlantirish, turkiy dunyo universitetlari o‘rtasidagi munosabatlarni kengaytirish, talabalar uchun almashinuv va amaliyot dasturlarini yaratish, stipendiyalar ajratish, ittifoqqa a’zo barcha mamlakat universitetlarida yuqori sifatli ta’lim standartlarini takomillashtirish masalalari ham muhokama qilindi. Ushbu anjuman doirasida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Turkiy Universitetlar Ittifoqi (TÜRKÜNİB)ga rasmiy a’zo bo‘lishi e’lon qilindi [4]. Jumladan, bunday qarorni Toshkent davlat transport universiteti va O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ham e’lon qilishdi [9]. 2023-yil holatiga ko‘ra Turkiy Universitetlar Ittifoqining Qozog‘iston, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Vengriyadan umumiy jami 49 ta a’zosi bor. Yangilangan jadvalda [16] quyidagi yangi oliygohlarni ko‘rish mumkin.

3-jadval

T/r.	Davlat	Oliy ta’lim muassasasi
1.	**Ozarbayjon**	Ozarbayjon tillar universiteti
2.		Ozarbayjon davlat iqtisodiyot universiteti
3.	**Qozog‘iston**	Atirau davlat universiteti
4.		Semey tibbiyot universiteti
5.		Sarsen Amanjolov nomidagi Sharqiy Qozog‘iston universiteti
6.		Qozog‘iston Milliy pedagogika universiteti
7.		Aktobe mintaqaviy universiteti
8.		Janubiy Qozog‘iston davlat pedagogika universiteti
9.		Qozog‘iston milliy ayollar pedagogika universiteti
10.		Olmaota menejment universiteti
11.		Qarag‘anda universiteti
12.	**Qirg‘iziston**	O‘sh davlat universiteti
13.		Botirali Sidiqov nomidagi Qirg‘iz-O‘zbek xalqaro univerisiteti
14.	**Turkiya**	Bitlis Eren universiteti
15.		Nigde Omer Halisdemir universiteti
16.		Gazi universiteti
17.		Kappadokiya universiteti
18.		Marmara universiteti
19.		Alanya Alovuddin Kayqubod universiteti
20.		Anqara universiteti
21.		Qahramonmarash Sutchi Imom univerisiteti
22.		Ibn Xaldun universiteti
23.		Sivas Jumhuriyat universiteti
24.		Bag‘cheshehir univerisiteti
25.		Afyonkarahisar sog‘liqni saqlash universiteti
26.		Anadolu univerisiteti
27.		Beykent universiteti
28.		Bursa Uludag‘ universiteti
29.	**O‘zbekiston**	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
30.		Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
31.		Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
32.		Qo‘qon universiteti
33.		“Ipak yo‘li” xalqaro turizm universiteti
34.	**Vengriya**	Szeged universiteti

TÜRKÜNİBda O‘rxun almashinuv dasturi [2], Ittifoq sport o‘yinlari [9] va Talabalar kengashi kabi ko‘plab faoliyat yo‘nalishlari mavjud. 2014-yildan buyon Kotibiyat tomonidan mazkur dasturlarda oldinga siljish uchun rektorlar va prorektorlar darajasida beshta yig‘ilish hamda beshta umumiy yig‘ilish tashkil etildi. Birinchi turdagi yig‘ilishlar Ittifoq ichidagi faoliyatni muvofiqlashtirishga, ikkinchi turdagilari esa Ittifoqqa tegishli zarur qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

Talabalar kengashi Ittifoqqa a’zo universitetlar talabalari o‘rtasida madaniyat, ta’lim va sport kabi sohalarda hamkorlik qilish uchun haqiqiy vositachilik ishini bajaradi. Talabalar shu vaqtgacha ushbu hamkorlik mexanizmiga jalb qilingan. Ularning Ittifoq ishida faol ishtirok etishi bilan mexanizmning yetishmayotgan qismi to‘ldirildi. Talabalar kengashi faoliyati turkiy o‘zlikni mustahkamlash va a’zo davlatlar universitet talabalari orasida Turkiy davlatlar tashkiloti haqida xabardorlikni oshirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiy universitetlar ittifoqi Talabalar kengashining birinchi va ikkinchi yig‘ilishlari 2016-yilning aprel va noyabr oylarida mos ravishda Erzirum va Bishkek shaharlarida bo‘lib o‘tdi. Talabalar kengashining ikkinchi yig‘ilishida sport o‘yinlari, talabalar oromgohlari, she’riyat va adabiyot bo‘yicha ko‘rik-tanlovlar tashkil etish kabi mavzular bo‘yicha kelishib olindi. Shuningdek, talabalar turkiy dunyo talabalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorladilar.

Turkiy davlatlar tashkilotining ta’sis hujjatlariga sodiq qolgan holda hamda Turkiy davlatlar tashkilotining III va IV sammitlarida Davlat rahbarlari tomonidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq, har tomonlama hamkorlikka hissa qo‘shishga qaratilgan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Tashkilotga a’zo davlatlarning universitet talaba-sportchilari o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazish, Turkiy Universitetlar ittifoqi universitetlari o‘rtasida do‘stlik, ahillik va hamkorlikni mustahkamlash va yanada rivojlantirish hamda talabalar o‘rtasida qardoshlik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida Ittifoq doirasida sport musobaqalarini o‘tkazish an’anasi yo‘lga qo‘yildi. Turkiy tilli universitetlarning II Universiada o‘yinlari 2023-yilda Qozog‘istonda bo‘lib o‘tdi [19].

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasidagi ilmiy hamkorliklar a’zolar orasida o‘zaro tajriba almashish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim platforma

sifatida xizmat qiladi. Ushbu tashkilot tuzilmalari orqali turkiy xalqlar o‘rtasida ilmiy va madaniy aloqalar mustahkamlanadi, bilim almashinuvi va ilm-fan sohasidagi hamkorliklar kuchayadi. TDT doirasida amalga oshiriladigan ilmiy dasturlar va loyihalar, a’zo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish bilan birga, o‘zaro manfaatlar va tajribalarni birlashtirish imkonini ham beradi. Shu tariqa, ilmiy hamkorliklar nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash, balki global ilmiy hamjamiyatda turkiy davlatlarning o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiy dunyo oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorliklar ilmiy va ta’lim jarayonlarini yanada samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorliklarning afzalliklari quyidagilar bilan dalillanadi:

- Tajriba va bilim almashinuvi: Universitetlar orasidagi hamkorliklar yordamida tadqiqotchilar va professorlar o‘z tajriba hamda bilimlarini bir-birlari bilan almashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi;
- Qo‘shma tadqiqotlar: Birgalikda tadqiqotlar olib borilishi natijasida kengroq muammolarni hal etuvchi, yanada kuchli va keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Qo‘shma tadqiqotlar ko‘pincha resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi;
- Akademik mobillik va almashinuv dasturlari: Universitetlar o‘rtasidagi hamkorliklar talabalar va o‘qituvchilar uchun almashinuv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Bu talabalar uchun xorijda o‘qish va yangi ilmlarni o‘rganish imkonini taqdim etadi;
- Kurs va dasturlarni rivojlantirish: Hamkorliklar universitetlarga birgalikda yangi kurslar va ta’lim dasturlari ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa ta’lim sifatini oshiradi hamda talabalarga zamonaviy bilimlarni taqdim etadi;
- Tadqiqot resurslari va infratuzilma: Munosabatlar o‘rnatilgan universitetlar bir-birlarining tadqiqot infratuzilmasi va resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradilar, bu esa o‘zaro foyda bilan birga, sifatli ilmiy ishlarni amalga oshirishni ham osonlashtiradi.

Innovatsion ekotizimlarni shakllantirish: Universitetlar orasidagi hamkorliklar innovatsion loyihalarni rivojlantirish, startaplar yaratish va ilmiy tadqiqotlarni sanoat bilan bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Türk üniversiteler birliği ve yükseköğretim alanı oluşturma yönergesi. 5 bölüm, 17 madde. İstanbul, – 2013. S. 8.
2. Turkiy davlatlar tashkiloti – Turkiy universitetlar ittifoqi. 26.06.2021. https://www.kokanduni.uz/uz/p/membership-in-international-associations/organization-of-turkic-states-union-of-turkish-universities
3. Türk Devletleri Türk Üniversiteleri Birliği Teşkilatı toplantısı Kırgız-Türk Manas Üniversitesi’nde (KTMU) gerçekleştirildi. http://turkunib.org/en/category/article?id=114
4. Türk üniversiteler birliği ve yükseköğretim alanı oluşturma yönergesi. http://turkunib.org/en/site/download?name=directive.pdf
5. Toshkent davlat transport universiteti Turkiy davlatlar tashkiloti Turk universitetlari Ittifoqining a’zosi bo‘ldi. 22.05.2024. https://tstu.uz/blog/990
6. TDT Türk Üniversiteler Birliği'nin (TÜRKÜNİB) 7. Genel Kurul Toplantısı Bakü'de düzenlenecektir. 14.05.2024. https://www.turkicstates.org/tr/haberler/tdt-turk-universiteler-birliginin-turkunib-7-genel-kurul-toplantisi-bakude-duzenlenecektir_3288
7. O‘zbekistonning 4 ta oliy ta'lim muassasasi Turk dunyosi universitetlari ittifoqiga a'zo bo‘ldi. 30. 10. 2021. https://kun.uz/news/2021/10/30/ozbekistonning-4 ta-oliy-talim-muassasasi-turk-dunyosi-universitetlari-ittifoqiga-azo-boldi?q=%2Fnews%2F2021%2F10%2F30%2Fozbekistonning-4ta-oliy-talim-muassasasi-turk-dunyosi-universitetlari-ittifoqiga-azo-boldi
8. Turkistonda Turk Universitetlar Uyushmasi 5-Umum Kengash yig'ilishi bo‘lib o‘tdi. 27. 10. 2021. https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/turkistonda-turk-niversitetlar-uyushmasi-5-umum-kengash-yigilishi-bo-lib-o-tdi/6179062d01a30af62c706128
9. Türkünib’den ALKÜ’ye önemli görev. 30.12.2022. https://orhun.alanya.edu.tr/haber/ turkunib-den-alku-ye-onemli-gorev/

10. Türk Devletleri Teşkilatı Türk Üniversiteler Birliği 6. Genel Kurulu Türkistan'da düzenlendi. 25.11.2022. https://turkicstates.org/tr/haberler/turk-devletleri-teskilati-turk-universiteler-birligi-6-genel-kurulu-turkistanda-duzenlendi_2698
11. TDT Türk Üniversiteler Birliği Rektörler Özel Toplantısı Semerkant'ta düzenlendi. 08.06.2023. https://www.turkicstates.org/tr/haberler/tdt-turk-universiteler-birligi-rektorler-ozel-toplantisi-semerkantta-duzenlendi_2950
12. "Türk devletçiliğinin temellerini atan tarihi bir şahsiyet olarak Efrâsiyâb (Alp Er Tunga)". https://www.turkicstates.org/tr/haberler/tdt-turk-universiteler-birligi-rektorler-ozel-toplantisi-semerkantta-duzenlendi_2950
13. Şimşek M. Türk Dünyasının Bütünleşmesinde Eğitim İş Birliği: Dünü, Bugünü ve Geleceği. Kriter aylık siyaset, toplum ve ekonomi dergisi. Eylül – 2023, Yıl 8, Sayı 82. S. 66
14. Samarqand davlat universiteti Turkiy universitetlar ittifoqiga a'zo bo'ladi… https://www.samdu.uz/uz/news/44715
15. Toshkent davlat transport universiteti Turkiy universitetlar ittifoqiga a'zo bo'ladi. 10.06.2023. https://tstu.uz/blog/371
16. Member universities. http://turkunib.org/en/site/index/#member
17. Orhun Pilot Exchange Program. http://turkunib.org/en/category/article?id=56
18. Turkic Universities Union Sports Games. http://turkunib.org/en/category/article?id=55
19. Туркий давлатлар ташкилотининг Рақамлаштириш маркази ташкил этилиши мумкин. 11.11.2022. https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/11/kazakhstan/

D.Tojiyev
A.Davkarov

Turkiy davlatlar ilmiy hamkorligida Turkiy universitetlar ittifoqining o'rni

Maqolada Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan muhim institutsional tashabbuslardan biri – Turkiy universitetlar ittifoqining shakllanish tarixi,

uning huquqiy-tashkiliy asoslari va rivojlanish bosqichlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, Ittifoq faoliyatiga davlat rahbarlari va hukumatlar darajasida o‘tkazilgan sammitlar, forumlar hamda rasmiy anjumanlarda qaratilgan e’tibor, qabul qilingan qaror va dasturlarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada Turkiy universitetlar ittifoqi doirasida amalga oshirilayotgan ta’limiy va ilmiy tashabbuslar, akademik almashinuv dasturlari, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar hamda ularni muvofiqlashtirishda Talabalar kengashining o‘rni alohida ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, Ittifoqning zamonaviy ilm-fan makonidagi dolzarbligi, uning turkiy davlatlar o‘rtasida ilmiy-innovatsion integratsiyani kuchaytirishdagi o‘rni hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahliliy yondashuvlar asosida baholangan.

Kalit so‘zlar. *Turkiy Universitetlar Ittifoqi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, Turkiy Kengash, “O‘rhun” almashinuv dasturi, assambleya, Talabalar kengashi, Ittifoq sport o‘yinlari.*

Д.Тожиев
А.Давкаров

Роль Союза тюркских университетов в научном сотрудничестве тюркских государств

В данной статье всесторонне анализируются история формирования, организационно-правовые основы и этапы развития Союза тюркских университетов как одной из ключевых институциональных инициатив в рамках Организации тюркских государств, направленной на углубление межвузовского сотрудничества в сфере науки и высшего образования. Особое внимание уделено вопросам, рассматриваемым на саммитах, форумах и официальных мероприятиях на уровне глав государств и правительств, а также значению принятых решений и программных документов для развития деятельности Союза. В статье рассматриваются основные направления образовательных и научных инициатив, реализуемых в рамках Союза тюркских университетов, включая программы академической мобильности, совместные научные исследования и координационные механизмы, при этом отдельно анализируется роль Студенческого совета в данных

процессах. Наряду с этим оценивается актуальность Союза тюркских университетов в современном научно-образовательном пространстве, его значение в укреплении научно-инновационной интеграции между тюркскими государствами, а также перспективные направления дальнейшего развития.

Ключевые слова. *Союз тюркских университетов, Совет сотрудничества тюркоязычных стран, Тюркский совет, Программа обмена «Орхун», ассамблея, Студенческий совет, спортивные игры Союза.*

D.Tojiev
A.Davkarov

The Role of the Union of Turkic Universities in Scientific Cooperation among Turkic States

This article provides a comprehensive analysis of the history of establishment, organizational and legal foundations, and stages of development of the Turkic Universities Union as one of the key institutional initiatives within the framework of the Organization of Turkic States aimed at deepening inter-university cooperation in science and higher education. Particular attention is paid to the issues addressed at summits, forums, and official meetings held at the level of heads of state and governments, as well as to the significance of adopted decisions and strategic programs for the Union's development. The article examines the main areas of educational and scientific initiatives implemented within the Turkic Universities Union, including academic mobility programs, joint research projects, and coordination mechanisms, with special emphasis on the role of the Student Council in these processes. Furthermore, the relevance of the Turkic Universities Union in the contemporary academic community, its contribution to strengthening scientific and innovative integration among Turkic states, and its future development prospects are assessed through analytical approaches.

Keywords. *Union of Turkic Universities, Cooperation Council of Turkic-Speaking Countries, Turkic Council, "Orhun" Exchange Program, assembly, Student Council, Union Sports Games.*